O‘zRVB Faoliyatni huquqiy ta’minlash boshqarmasi boshlig‘i J.Xudoyberdiyevning brifingdagi
NUTQI

Sana: 6 fevral 2024 y.

Mavzu: **“PQ 291-sonli Prezident qarori ijrosi: “Toshkent” RFB a’zolarini soddalashtirilgan tartibda “O‘zRVB” AJ a’zoligiga qabul qilish bo‘yicha yagona tartibni tasdiqlash”**

Assalomu alaykum!

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kapital bozorini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi”ga muvofiq birja a’zolarini savdolarda qatnashish imkoniyatini oshirish orqali investorlar bazasini kengaytirish ko‘zda tutilgan.

Shunga ko‘ra, “Toshkent” respublika fond birjasi” (“Toshkent” RFB) a’zolarini soddalashtirilgan tartibda “O‘zbekiston respublika valyuta birjasi” (O‘zRVB) a’zoligiga qabul qilish bo‘yicha yagona tartibni tasdiqlash va bunda, ikki birja a’zolarini o‘zaro tan olish tamoyillarini nazarda tutish belgilangan.

Aytish joizki, “Toshkent” RFB hamda O‘zRVBga a’zolikka qabul qilish jarayonlari mazkur birjalarning ichki qoidalari asosida amalga oshirib kelinmoqda.

O‘z navbatida, ilgari ikki birja savdo ishtirokchilarini a’zolikka qabul qilishda o‘zaro tan olish tizimi mavjud bo‘lmagan.

Mazkur qaror talablaridan kelib chiqib, “Toshkent” RFB a’zolarini soddalashtirilgan tartibda O‘zRVB a’zoligiga qabul qilish bo‘yicha yagona tartib (Tartib) ishlab chiqildi.

Bunda, ikki birja a’zolarini o‘zaro tan olish tamoyillari nazarda tutildi.

Mazkur Tartibga muvofiq O‘zRVB a’zoligiga “Toshkent” RFB a’zolarini qabul qilishda ikki birja o‘rtasida idoralararo elektron hujjatlar

almashinuvini joriy qilish orqali yagona elektron axborotlar bazasi shakllantiriladi.

Birja a’zoligiga qabul qilish ariza asosida mazkur axborot tizimida mavjud ma’lumotlarni tekshirish orqali amalga oshiriladi.

Ma’lumotlarni tekshirish jarayonida topshirilgan hujjatlar va ma’lumotlarda kamchiliklar mavjud bo‘lmasa, talabgorni davlat qimmatli qog‘ozlari bilan operatsiyalarni amalga oshirish va savdolarda qatnashish huquqini beruvchi O‘zRVBning “V” toifasi bo‘yicha a’zoligiga qabul qilish yuzasidan 3 ish kunida O‘zRVB Ijroiya organi qarori qabul qilinadi.

Mazkur Tartibga ko‘ra ikki birja o‘rtasida idoralararo elektron hujjatlar almashinuvi joriy qilinishi munosabati bilan O‘zRVBga a’zolikka qabul qilishda talab qilinadigan hujjatlar soni 2 baravarga kamaytirildi hamda a’zolikka qabul qilish jarayonining mudati 1 oydan 3 ish kunigacha qisqartirildi.

“Toshkent” RFB a’zosi tomonidan Tartibning talablari to‘liq bajarilganidan so‘ng, u savdo tizimida qayd etiladi va unga identifikatsiya kodi beriladi.

Shu bilan birga, ikki birja a’zoligiga qabul qilish jarayonida o‘zaro tan olish tamoyillari joriy etilishi natijasida O‘zRVBning “V” toifasi bo‘yicha a’zolari “Toshkent” RFB tomonidan uning a’zosi sifatida o‘zaro tan olinadi hamda ular “Toshkent” RFBdagi birja savdolarida o‘z treyderini akkreditatsiyadan o‘tkazish va shartnoma tuzish orqali qatnashish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Mazkur Tartibning qabul qilinishi natijasida ikki birja a’zolarining davlat va korporativ qimmatli qog‘ozlari bilan birja savdolarida qatnashish imkoniyati kengaytirilib, chet el investorlarining qimmatli qog‘ozlar bozoriga jalb etilishi uchun sharoit yaratilmoqda.

E’tiboringiz uchun rahmat!